

ENGLISH AND UZBEK INTERPRETATIONS OF ZOOSEMISM IN PROVERBS

Umida Toirova Sobirovna

Teacher of English literature Department, BSU

Abstract. Using zoosemism in English and Uzbek proverbs is analyzed in this article.

Key words: zoosemism, sema, figurative, metaphorical meaning, direct meaning, qawola.

Kirish. Bugungi kunda barcha sohalar kabi adabiyot ham o'z rivojlanish, gullab yashnash izidan odimlab bormoqda. Har qaysi davrdagi noyob asarlar, yozuvchi va shoirning kelajak avlodga qoldirgan merosi albatta yuksakdir. Bugun jahon adabiyoti, hamda o'zbek adabiyoti durdonalaridan bo'lmish xalq og'zaki ijodi namunalari hamon bebaho durdonalardan bo'lib kelmoqda. Chunki xalq yaratgan asarlarda o'sha xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati, dunyoqarashi, badiiy, ijodiy hamda amaliy faoliyatlari mujassam bo'ladi. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining yana janrlaridan biri maqol haqida so'z yuritiladi. Ayniqsa ikkala xalq maqollarida ikkala xalqning tarixiy madaniyatiga aloqador zoosemism atamasininig qo'llanilish xususiyatlari ya'ni hayvon nomlarining ma'nolari ochib beriladi va misollar orqali qiyoslanadi.

Asosiy qism. Avvalambor maqollarni tahlil qilishdan oldin biz Qiyosiy adabiyotshunoslik haqida ham to'xtalib o'tishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Qiyosiy adabiyotshunoslik adabiyotshunoslikning asosiy sohalaridan biri bo'lib, u ikki va undan ortiq milliy yoki jahon adabiyotini o'rganish hamda taqqoslash bilan shug'ullanadi. Ularning o'xshash va farqli tomonlarini, o'zaro harakat va ta'sirlarini aniqlaydi. "Qiyosiy adabiyot" tushunchasining o'zi fransuzcha "literature comparee" ("qiyoslangan adabiyot") va nemischa "Die vergleichende literaturwissenschaft" ("adabiyotlarning qiyoslanishi") tushunchalaridan kelib chiqqan. K. Pishua va V. Jirmunskiylarning fikrlaricha, ayniqsa, nemischa tushuncha mohiyatni ancha aniq aks ettiradi. Chunki

unda urg'u qiyoslash bilan shug'ullanadigan fanga beriladi. Qiyosiy adabiyotshunoslik 19-asrning ikkinchi yarmida mustaqil fan sifatida rivojlana boshladi. Qiyosiy adabiyotshunoslikning obyekti bir nechta taqqoslanadigan adabiyot bo'lsa, predmeti esa millatlararo adabiy aloqalar bo'lib hisoblanadi. Bugungi maqolamizda esa ingliz va o'zbek adabiyotlardagi maqollarda zoosemizm atamasinig farqli va o'xshash tomonlarini o'rganib chiqamiz. "Zoosemizm" atamasini birinchi marta L.A. Kipriyanova taklif qiladi. Zoo-hayvon **Sema** (yun. sema — belgi) — mazmun, ma'no jihatining eng kichik birligi, leksik ma'no)ning tarkibiy qismi. Ba'zan adabiyotda bu termin to'g'ridan-to'g'ri yoki majoziy ma'noda hissiylik va obrazlilikni kuchaytirish maqsadida foydalaniladi.

Hozirgi zamon maqollarni chuqurroq o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqol arabcha «qawola» so'zidan olingan va «aytmoq, so'zlamok» ma'nolarini anglatadi. Xalq orasida «Qavlida sobit» yoki «Qavlida tuturuqsiz» iboralari bor: birinchisida «so'zida qat'iyatli, bir so'zli» m a'nolari anglashilsa, ikkinchisida «so'zida turmaydigan, o'z so'zi ustidan chiqa olmaydigan, so'zi bilan ishi bir bo'lmagan » manolari ifodalangan. Binobarin, « maqol » so'zi o'zbek tilida ikki manoda, avvalo, o'z lug'aviy manosida — « so'z, nutq»ni anglatga, ikkinchidan, istilohiy manoda — folklorda keng tarqalgan .

Maqol —xalq og'zaki ijodi janri bo'lib ,qisqa ,lo'nda,obrazli ,grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora,chuqur ma'noli hikmatli ibora.Maqollarda avlod ajdodlarning hayotiy tajribalari,jamiyatga munosabati ,tarixi,ruhiy holati,etik va estetik tuyg'ulari ijobiy fazilatlari mujassamlashgan bo'ladi.Maqol xalqning hayot tajribalari orqali yuzaga kelgan hikmatli so'zdir.

Ba'zi maqollarda aynan shu ma'no kasb etadigan hayvon nomlari har doim ham berilavermaydi .Bu esa ikkala tilning farqli xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi.Quyidagi ingliz maqolida hayvon nomi berilmagan bo'lsada uni o'zbek tilida tarjima qilganda quyidagi ma'no kasb etadi.

When Hell freezes. Jahannam muzlaganda. Tuyaning dumi yerga tekkanda .

Keyingi maqolda esa aksincha ingliz tilida berilgan maqol to'g'ridan to'g'ri ma'no bildirmay kelgan.

Go to bed with the lamb, and rise with the lark.Erta turgan ish bitirar,Kech turgan ko'p turtinar.

Ushbu maqol esa yuqorilardagidan ancha farq qilib,iikala tilda berilgan maqollar bir xil ma'no ifodalamoqda.

Better be the head of a dog than the tail of a lion.

Arslonning dumi bo'lgandan ko'ra itning boshi bo'lgan afzal. (G'urur)

Shuningdek, ingliz maqollarda “it” obrazi zoosemizm talqinida ko'proq hayvonlar orqali odamlarga xos bo'lgan ijobiy xususiyatlar ochib beriladi. Misol tariqasida quyida keltirilgan parchalarni havola qilamiz.

Masalan:

Give a dog a bad name and hang him. Itga yomon nom bergin-u, osgin.

A good dog deserves a good bone. Yaxshi itga — yaxshi suyak.

Bunda it obrazi vafodorlik, sadoqatlilik, yaxshilik, donolik, sofdillik obrazlarida gavdalanadi.

Ammo ayrim o'zbek maqollarida “it”, salbiy obrazlarda ishlatiladi. Masalan:

- ***It hurar karvon o'tar. - The dogs bark, but caravan goes on.***
- ***Itlar bilan yotgan, bitlab turar. - Down with dogs must rise up with fleas, He that lies.***
- ***Itni suyak bilan ursangiz, qopmas. - A dog will not howl if you beat him with a bone.***
- ***Itidan suyak artmas, mushukdan – bez. - Two dogs over one bone seldom agree.***
- ***Tanlay, tanlay tozga yo'liqdim, boshi piyoz kalga yo'liqdim.***

Scornful dogs will eat dirty puddings.

Ushbu maqollarda “it” obrazi ko'proq jahldor, e'tiborsiz, yomon, razil, iflos, poraxo'r, ochko'z, dimog'dor odamlarga qaratilgan holda gavdalanadi.

Keyingi tahlilimiz esa har bir hayvon obrazidagi zoosemizm tahlil qilinib, ularning ma'nolari ochib beriladi.

1. All is ***fish*** that comes to his net. Nimaiki ilinsa to'riga baliq bo'lib ko'rinar ko'ziga. ***Tovuq***ning tushiga don kirar. (baliq va tovuq misolida “manfaat”)
2. ***Fish*** begins to stink at the head. Baliq boshidan sasiy boshlaydi. ***Baliq*** boshidan chirydi. (baliq obrazida yomon boshqaruv)
3. The great ***fish*** eat up the small. Katta baliq kichigini yeydi. Zo'rga ham zo'rdek balo bor. (baliqning katta kichikligiga qarab yomonlik qilish nazarda tutiladi)
4. Like water off a ***duck's*** back. Suv o'rdakning patidan sirg'alib ushganidek. Dunyoni suv bossa, ***o'rdakka*** nima gam. (O'rdakdek beparvo)
- 5 Kill the ***goose*** that laid the golden eggs. Oltin tuxum qo'yadigan g'ozni o'ldirmoq. O'zing suv ichadigan quduqqa tupurma. (O'rdak misolida esa rizq-nasiba)
- 6 All ***cats*** love fish but fear to wet their paws. Mushuk baliqni xush ko'rar, ammo oyog'ini ho'llashdan qo'rqqar. ***Baliqni*** xush ko'rgan, qiltanog'idan qo'rqmas. (mushuk talqinida maqsad sari ildam qadam)

7. When the **cat's** away, the **mice** will play. Mushuk ketsa, sichqon o'yinga tushadi. **Mushuk**ning o'lgani—sichqonga to'y. (mushukning o'limi bu -ozodlik)
8. **Rats** desert a sinking ship. Kalamushlar cho'kayotgan kemadan qochadi. Xoin xavfli bo'ladi. (Kalamushlar misolida xoinlik)
9. Barking **dogs** seldom bite. Huradigan itlar kamdan-kam qopadi. Qopag'on **it** tishini ko'rsatmas. (huradigan itga nisbatan qo'rqqoqlik)
10. Let sleeping **dogs** lie. Uxlab yotgan kuchuklarni uyg'otmang. Yotgan **ilon**ning quyrug'ini bosma. (Beparvolik)
11. An old **dog** barks not in vain. Qari it bekorga hurimaydi. Qari **it** ko'p yo'l bilar. (Tajriba)
12. At open doors **dogs** come in. Ochiq eshikka itlar kirar. Hushyorni yov bosmas, Yov bossa ham, dov bosmas. (Hushyorlik)
13. Catch the **bear** before you sell his skin. Ayiqning terisini sotishdan oldin, o'zini tutgin. **Ot** kimniki —minganniki, To'n kimniki —kiyganniki. (Sabr-toqat)
14. When the **fox** preaches, then beware your **geese**. Tulki nasihat qila boshlaganda, g'ozlaringizni qo'riqlang. **Tulki**ning hiylasi ko'p, yaxshisi —qochmoq. Makr-hiyla
15. It is a good **horse** that never stumbles. Hech qoqilmaydigan ot yaxshidir. Otning yaxshisi tizidan ma'lum, Odamning yaxshisi —so'zidan (Yaxshilik qiladigan odam)
16. An **ass** in a lion's skin. Sher terisidagi eshak. Kalla boshqa, salla boshqa. (Maqtanchoqlik)
17. An **ass** between two bundles of hay. Ikki bog' pichan orasida arosatda qolgan eshak. Ikki **quyon**ning ketidan quvgan, ikkalasidan ham quruq qolar. (Ochko'zlik)
18. Beard the **lion** in his den. Sherning soqolidan o'z uyasida ushlamoq. **Arslon** bolasini tutmoq uchun, **Arslon** uyasiga kirmoq kerak. (Botirlik)

Shundan ko'rinib turibdiki yuqorida keltirilgan misollarda, biz aynan zoosemizm ya'ni hayvonlar qatnashgan maqollarning ingliz hamda o'zbek tillarida berilishining ijobiy va salbiy xususiyatlarini, fazilatlarini va ruhiy kechinmalarini ifodalay oladigan bir qisminigina tahlil qildik.

Demak ingliz va o'zbek maqollarida zoosemizm orqali insonlarning fazilatlari va xislatlari ham bayon etiladi. Aynan hayvon obrazi talqinida ushbu terminni tasvirlash adabiyotda majoziy ma'nolar ifodalashini ta'minlaydi. Bundan tashqari hayvonning xarakter va xususiyatlarga qarab insonlarning sifati qiyoslanib, adabiyotni boyitishda alohida o'rin egallaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O.Safarov "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" musiqa nashriyoti Toshkent 2010 yil

2. O'zbek xalq maqollari www.ziyouz.com kutubxonasi
3. K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning "Proverbs. Maqollar. Пословицы Ташкент mehnat 2000 yil
4. T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov O'zbek xalq maqollari "sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik bosh tahririyati 2005
5. wikipedia.org/wiki/sema
6. Axmedova Ugiljon Kuronboyeva "Ingliz va o'zbek maqollarning lingvokulturologik va semantic xususatlari" (magistr dissertatsiyasi) 2014. Urganch
7. Файзуллоев О. М. ОБ ОСОБЕННОСТЯХ ИНТЕРПРЕТАЦИИ УЗБЕКСКИХ СКАЗОК // Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 12. – С. 212-215.
8. Fayzullayev M.B, Fayzulloyev O.M, & Saidova M.M. (2021). Images of animals in the Legends of Haji Nasretidin. Middle European Scientific Bulletin, 10(1).
<https://doi.org/10.47494/mesb.2021.10.328>
9. Bakaevna R. M. Artistic interpretation of the mythonyms of Angel and Devil in the works of A. Navoi // Middle European Scientific Bulletin. – 2020. – T. 5.
10. Baqoevna R. M., Oxunjonovna S. H., Qodirovna A. Z. ANALYTICAL AND SYNTHESIZED FOLKLORISM IN NAVOI'S WORK // Journal of Contemporary Issues in Business and Government. – 2021. – T. 27. – №. 2. – С. 1626-1633.
11. Baqoevna R. M. Interpretation of Navruz In Navoi's Work // International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2021. – T. 25. – №. 1. – С. 16-23.
12. Akhmedova D.B. Semantic labeling of language units // International Journal on Integrated Education. e-ISSN: 2620 3502 p-ISSN: 2615 3785. Volume 3, Issue I, Jan 2020. – P. 177-179 // <https://www.researchgate.net/publication/339152869>
13. Akhmedova D.B. Set of semantic tags for Uzbek language units: constants and operator/classifier. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Impact Factor, 2409-0085(online) Issue:02 Volume:82 Published 29.02.2020. – P.177-179. <https://www.elibrary.ru/defaultx.asp?rpage=https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42658994>
14. Akhmedova D.B., Mengliyev B. Semantic Tag Categories in Corpus Linguistics: Experience and Examination // International Journal Of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN:2277-3878, Volume-8, Issue-3S, October-2019// <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss1/15/>